

20-May, 2025-yil

MADANIYAT VA SAN’AT ORQALI MILLIY O’ZLIKNI SAQLASH

Respublika musiqa va san’at texnikumi

Boltaboyev Lutfullo

Xoliqov Husniddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va san’atning milliy o’zlikni shakllantirish va uni asrashdagi o’rni tahlil qilingan. Muallif xalq urf-odatlari, milliy musiqa, tasviriylar sahna san’ati orqali xalqning tarixiy xotirasi va qadriyatlar qanday avloddan-avlodga o’tishini yoritadi. Shuningdek, globallashuv jarayonida madaniy merosni asrab-avaylashning dolzarbligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Milliy o’zlik, madaniyat, san’at, urf-odat, qadriyatlar, xalq ijodi, globallashuv, meros.

Har bir xalqning o’ziga xos tarixi, tili, urf-odatlari, qadriyatlar va san’ati mavjud. Bu omillar xalqning milliy o’zligini belgilaydi. Ayniqsa, madaniyat va san’at milliy o’zlikning ifodasi, jamiyat xotirasi va merosining eng muhim ko‘rinishidir. Bugungi globallashuv jarayonida har bir xalq uchun o’z milliy o’zligini saqlash dolzarb masalaga aylangan. Shu jihatdan qaraganda, madaniyat va san’at milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi.

Madaniyat va san’at insoniyat tarixining uzviy qismidir. Har bir xalq o’zining betakror madaniy merosi orqali dunyo sivilizatsiyasiga hissa qo’shami. O’zbekiston xalqi ham qadimdan boy va rang-barang madaniyatga ega bo’lgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan noyob san’at asarlari, me’moriy obidalar, xalq amaliy san’ati namunalari bugungi kunda ham butun dunyo e’tiborini tortmoqda.

An’anaviy musiqa — maqom san’ati, dostonlar, xalq qo’shiqlari — xalq ruhiyatining ifodasi bo‘lib, ularning har biri xalq hayoti, orzu-umidlari, izardorlar va quvonchlarini o’zida mujassam etadi. Maqom san’ati YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e’tirof etilgani O’zbekistonning madaniy boyligining dunyo miqyosidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, milliy kiyim-kechaklar, milliy taomlar, hunarmandchilik mahsulotlari — do‘ppi, gilam, kashta — xalq ijodining ifodasi bo‘lib, ularning saqlanishi va rivojlanishi orqali ham milliy o’zlik saqlanib qoladi. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar milliy kiyimlarni zamonaviy moda bilan uyg‘unlashtirib, ularni kundalik hayotda tatbiq etishga harakat qilmoqda. Bu esa milliylik va zamonaviylikning uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy O’zbekistonda madaniyat va san’atni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida madaniyat va san’at sohalariga katta e’tibor qaratilib, yosh ijodkorlar, san’at mакtablari, teatrlar va muzeylar faoliyati qo’llab-quvvatlanmoqda.

Madaniyat — bu xalqning hayot tarzi, fikrlash uslubi, dunyoqarashi va madaniy meyorlari yig‘indisidir. O’zbek xalqining boy madaniy merosi, qadimiy urf-odatlari,

20-May, 2025-yil

tantanali marosimlari, xalq og‘zaki ijodi namunalarida bu o‘zlik yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Navro‘z bayrami, to‘y marosimlari, xalq ertaklari, maqollar va dostonlar orqali xalqning madaniy dunyosi avloddan avlodga o‘tib kelmoqda.

San’at esa ushbu madaniyatning estetik ko‘rinishidir. Musiqa, raqs, teatr, adabiyot, tasviriy san’at kabi yo‘nalishlarda xalqning qalbi, orzulari va dardlari ifodalanadi. O‘zbek milliy musiqa asboblari — dutor, tanbur, rubob, doira — orqali kuylangan xalq kuy va qo‘sishqlari xalq ruhiyatining timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy san’at asarlarini yaratish va ularni keng targ‘ib qilish orqali yosh avlodda o‘z xalqiga hurmat, tarixiga qiziqish, madaniyatiga mehr uyg‘otiladi. Bu esa o‘z navbatida milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, internet va ommaviy madaniyat ta’sirida ko‘plab xalq an’analari unutilib ketish xavfi ostida turibdi. Shu sababli madaniy merosni asrash, uni yoshlari orasida ommalashtirish, ijodkorlarni qo’llab-quvvatlash — milliy o‘zligimizni saqlab qolishning eng muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat va san’at xalq ruhiyati, tarixi va kelajagining aksidir. Uni asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir. Zero, o‘z o‘zligini anglagan xalqgina mustahkam jamiyat barpo eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Qodirov T. Madaniyat va zamon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2005.
3. Hasanov A. Milliy madaniyat asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish strategiyasi” (ruxsat etilgan rasmiy hujjat, 2021 yil).